

BUXORO JADIDCHILIGI

I.M. Xaydarov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida professori, tarix fanlari doktori (DSc).

Norboyeva Gulsanam – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.
E-mail: izzatillakhon@gmail.com,
gulsanamnorboyeva09@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro jadidchiligi harakatining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida shakllangan jadidchilik harakatining asosiy vakillari, ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, jadidchilarning jamiyatni isloh qilish, ta’lim tizimini yangilash hamda milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg‘onish, islohot, Amirlik, jadidlar, ta’lim tizimi.

Abstract. This article analyzes the emergence, development stages, and socio-political as well as cultural significance of the Jadid movement in the Emirate of Bukhara. The study highlights the activities of Jadid representatives of the late 19th and early 20th centuries, their educational ideas, and their role in establishing new-method schools. It also examines the importance of Jadids in social reforms, modernization of the education system, and the process of national awakening.

Keywords: Bukhara, Jadidism, enlightenment, new-method schools, national awakening, reforms, emirate, Jadids, education system.

Аннотация. В данной статье анализируются возникновение, этапы развития и общественно-политическое, а также культурное значение джадидского движения в Бухарском эмирате. В исследовании освещается деятельность представителей джадидизма конца XIX – начала XX века, их просветительские идеи и роль в создании школ нового метода. Также рассматривается значение джадидов в процессе реформирования общества, модернизации системы образования и национального пробуждения.

Ключевые слова: Бухара, джадидизм, просветительство, школы нового метода, национальное пробуждение, реформы, эмират, джадиды, система образования.

Kirish. Buxoro jadidchiligi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan eng muhim ijtimoiy-ma'rifiy va siyosiy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu harakat Buxoro amirligi sharoitida vujudga kelib, jamiyatning ma'naviy hayotini yangilash, eski ta'lim tizimini isloh qilish hamda xalqni ilm-fan va zamonaviy bilimlarga yo'naltirishni maqsad qilgan. Jadidchilik g'oyalari dastlab ma'rifatparvarlik asosida rivojlanib, keyinchalik ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb eta boshladi. Jadidlar “yangi usul” maktablarini tashkil etish orqali yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga harakat qildilar. Ular jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta'lim va ma'naviyatni ko'rdilar.

Buxoro jadidchiligi nafaqat ta'lim tizimini yangilash, balki milliy ongning shakllanishi va uyg'onish jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli ushbu mavzuni o'rganish Buxoro tarixidagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni chuqurroq anglashga yordam beradi

Adabiyotlar sharxi: Buxoro jadidchiligi va Buxoro Xalq Respublikasi tarixi bo'yicha adabiyotlar turli davrlarda yaratilgan bo'lib, ular ushbu harakatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini yoritib beradi. Juliboy Eltazarovning “Buxoro jumhuriyati 101 yoshda”¹ asarida Buxoro Xalq Respublikasining tashkil topishi va faoliyati tarixiy xotira nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Muallif jadidlar harakatini milliy davlat qurish yo'lidagi muhim bosqich sifatida ko'rsatib, uning tarixiy ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Nusratillo Naimovning “Buxoro jadidlari”² asari bu harakatning eng muhim ilmiy tadqiqotlaridan biri bo'lib, unda jadidlarning mafkurasi, siyosiy dasturlari va islohotchilik faoliyati batafsil o'rganilgan. Ushbu manbada Fitrat va boshqa jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda ularning amaliy siyosiy harakatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

H. Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash”³ asarida jadidchilik harakati keng tarixiy jarayon — mustamlakachilikka qarshi kurash kontekstida ko'rib chiqiladi. Unda Rossiya imperiyasi siyosati va unga qarshi milliy harakatlar, jumladan, jadidlar faoliyati tarixiy-siyosiy nuqtayi nazardan yoritilgan.

Bahodir Eshovning “O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi”⁴ asarida esa jadidlar faoliyati davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Muallif Buxoro Xalq Respublikasi davridagi boshqaruv tajribalarini va jadidlarning davlat qurilishidagi rolini alohida ta'kidlaydi.

¹ Juliboy Eltazarov. Buxoro jumhuriyati 101 yoshda. – Istanbul: Mumtoz nashriyoti, 2021.

² Nusratillo Naimov. Buxoro jadidchiligi. – Toshkent: Fan, 2000.

³ Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: Sharq, 1998.

⁴ Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

Halim To'raevning "Buxoro tarixi"⁵ asarida Buxoro hududining umumiy tarixiy rivojlanishi bilan bir qatorda jadidchilik harakati ham yoritiladi. Unda Buxorodagi siyosiy jarayonlar, amirlik tuzumining inqirozi va jadidlar islohotlari tarixiy ketma-ketlikda beriladi

Natijalar. Sovet tarixshunosligi Jadidchilikni 1880-yillarda tatar burjuaziyasining millatchilik oqimi o'laroq ta'rifladi. Uning maqsadi Islom dinini milliy burjuaziya ehtiyojlariga moslash edi. O'rta Osiyodagi jadidchilik 1905-yildan so'ngra Pan-Turkizm harakatiga aylana boshlagan, Birinchi Jahon Urushi yillarida asir tushgan turk ofitserlari bu hududda Pan-Turkizm, Pan-Islamizm fikrlarining yoyilishiga katta hissa qo'shganlar.⁶

Turkistonlik jadidlar fevral inqilobidan so'ng o'zlarining burjua-millatchilik tashkilotiga asos solganlar (Yosh Buxoroliklar, Yosh Xivaliklar). Ular Qo'qon Muxtoriyatini e'lon qilishlariga qaramay, bolsheviklar tarafidan tarqatib yuborilgan. Buxoro va Xorazm jumhuriyatlarida ilk paytlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jadidchilik faoliyatlari esa bolsheviklarning sayi harakatlari bilan bartaraf etilgan.

Sovet tarixchiligi jadidchilik haqida, umuman olganda, mana shunday ta'rif bersa ham, vaqti-vaqti bilan farqli yondashuvlarda bo'lgan. Hali bolsheviklar kuchga kirmagan va yosh buxoroliklar bilan hamkorlikda bo'lgan paytlar jadidchilik taraqqiyparvar harakat sifatida baholanardi. Jadidchilik masalasida sovet qarashlarining o'zgarishi Buxoro jumhuriyatidagi milliy kadrlarning tozalanishidan so'ng boshlangan edi⁷.

Bu davrdagi Buxoro jadidlari mamlakatni isloh qilish, yangi usul maktablari ochish tarafdorlari bo'lgan. Ularga misol qilib Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Abduvohid Burhonov, Atoullo Xo'jayev, Mirzo Narzullo, Abduqodir Muhitdinov, Musojon Sayidjonov, Rahmat Rafiq Abdullabekov, Said Axroriy, Qori Yo'ldosh Po'latovlarni misol qila olamiz.

Buxoro jadidlari yo'l boshchilaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat 1886-yilda ziyoli oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktabda, keyin Mir-arab madrasasida tahsil ko'rdi. 1904-1907-yillarda u haj safari qilib Eron, Hindiston, Arabiston mamlakatlarida sayohatda bo'ldi. 1909-1913-yillarda "Tarbiyai atfol" jamiyati homiyligida Istanbulga o'qishga ketdi. Xorijda o'qigan yillarida Turkiyada milliy-ozodlik harakati namoyandalari va Istanbulda tahsil ko'rayotgan boshqird, tatar, ozarbayjon taraqqiyparvarlari o'rtasida maslakdoshlar orttirdi.⁸

Abdurauf Fitrat Turkiyada tahsil ko'rgan yillarida badiiy ijod bilan shug'ullana boshladi. Dastlab publitsistik maqolalar yozib "Buxoroi Sharif", "Turon" gazetalariga

⁵ To'raev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2020. – B. 320.

⁷ Juliboy Eltazarov. Buxoro jumhuriyati 101 yoshda. – Istanbul: Mumtoz nashriyoti, 2021.

⁸ Nusratillo Naimov. Buxoro jadidchiligi. – Toshkent: Fan, 2000.

yubordi. “Buxoroi Sharif” gazetasi mahalliy ma’rifatparvarlar tashabbusi bilan 1912-yil martida fors tilida nashr etila boshlandi. Ko‘p o‘tmay uning o‘zbek tilidagi “Turon” ilovasi bosmadan chiqdi. Gazetalar Kogon shahridagi tadbirkor Levin xususiy bosmaxonasida haftada uch martadan chop etilardi. Fitrat Istanbuldan yo‘llagan maqolalarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi. Asta-sekinlik bilan bu g‘oyalar tobora jangovar tus olib, Turkiyada tahsil olgan yillarida yozilgan “Munozara”, “Rahbari Donish”, “Oila”, “Hind sayyohining qissasi” singari asarlarida, “Sayha” deb atalgan to‘plamdagi otashin she’rlarda o‘z aksini topdi. Qisqa muddatda Fitrat bu asarlari tufayli Sharqning taniqli yosh adabiyotchilari safidan o‘rin oldi.

Rossiyada 1917-yil fevral burjua inqilobi Buxoro amirligidagi siyosiy muhitga ta’sir qilmay qo‘ymadi. Endi jadidlar ochiqdan ochiq siyosiy talablar bilan chiqa boshladilar. Abdurauf Fitrat jadidlarning siyosiy dasturini ishlab chiqib, Buxoroda amirning mutlaq hukmronligini konstitutsion tuzumga asoslangan hukmronlik bilan almashtirishni taklif qildi. Bu dastur quyidagi siyosiy talablarni o‘z ichiga olgan edi:

- milliy madaniyatga ega bo‘lib mustaqil millat sifatida yashash;
- davlat tuzilishi jumhuriyat shaklida bo‘lib, millat majlisi hokimiyat asosidir.
- Milliy hukumat milliy askarga tayanadi;
- mamlakatda vijdon, matbuot va nashriyat, shaxs erkinligi ta’minlanadi;
- asosiy soliq daromadga qarab olinadi;
- yerosti va yerusti boyliklari davlat mulkiga aylanib, hokimiyatning butun kuchi suv ta’minotiga erishib, yuqori hosil olishga qaratiladi;
- madaniyat yodgorliklari himoya ostiga olinadi.⁹

Jami 19 banddan iborat bo‘lgan siyosiy dastur amir Olimxon tomonidan qabul qilinmagandan keyin Buxoro jadidlari erkinliklar talab qilib Labi-hovuzdan Buxoro Arkigacha saf tortib siyosiy namoyish o‘tkazdilar. Amir sarbozlari va mutaassib mullalar gij-gijlagan avom fuqaro kuchi bilan namoyish tarqatilib, ko‘pgina jadidlar zindonga tashlanib, qatl etildi.

Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Abduvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Muso Sayidjonov va boshqa jadid partiyasi yetakchi namoyandalari Toshkent va Samarqanda jon saqlab qolib siyosiy kurashni davom ettiradilar. 1918-yil martida jadid partiyasining so‘l guruhiga aylangan Yosh buxoroliklar bolsheviklar yordamida kuch bilan hokimiyatni qo‘lga olishga urinishib ko‘radilar. Bu ikkala tomonda ham katta qon to‘kilishlarga olib kelib, minglab buxoroliklar halok bo‘ladilar.

Bolsheviklar har qanday yo‘llar bilan Yosh buxoroliklar ishonchini qozonishga harakat qilib, rahbarlarni o‘zlarining g‘oyaviy ta’sirlariga olishadi va Buxoro Xalq Respublikasini tashkil qilishga yordam ko‘rsatishga va’da berishadi. 1920-yil sentabrida Mixail Frunze boshliq Qizil qo‘shin yordami bilan katta qurbonlar,

⁹ Nusratillo Naimov. Buxoro jadidchiligi. – Toshkent: Fan, 2000.

vayronagarchiliklar bilan Buxoro zabt etiladi. Haqiqatan ham shaklan mustaqil Buxoro Xalq Respublikasi tashkil etiladi, ammo sovet qurolli kuchlari respublikani tark etishmaydi¹⁰.

Buning oqibatlarini Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev va boshqa jadid arboblari bir necha yildan keyin his qilishadi. O'shanda esa Fitrat Fayzulla Xo'jaev boshchiligidagi hukumat tarkibida maorif noziri, xorijiy ishlar noziri, islohot komissiyasi raisi va yana bir qator mas'ul vazifalarda faoliyat ko'rsatadi. Uning bevosita rahbarligi ostida xalq ta'limi, xorij bilan iqtisodiy va ma'rifiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yiladi, bir guruh buxorolik yoshlar Germaniya, Turkiya va Rossiyaga o'qishga yuboriladi, vayron etilgan me'moriy yodgorliklarni ta'mirlashga kirishiladi. Chinakam maslakdoshlardan iborat bo'lgan hukumat iqtisodiyot sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib, Buxoro pulining qadri tobora oshib boradi. Jadid hukumati vakillari turli yig'inlarda, matbuotda respublika hududidan rus qo'shinlarini olib chiqish, milliy armiyani shakllantirish, milliy kadrlarga rahbarlikdan keng o'rin berish va boshqa siyosiy talablar bilan chiqa boshlaydilar. "Buxoro axbori" (hozirgi "Buxoronoma") gazetasida 1922-1923-yillarda bu to'g'rida ko'plab maqolalar e'lon qilinadi.

Ammo barcha harakatlar befoyda edi. Bolsheviklar Buxoro Xalq Respublikasini yo'qotish uchun barcha tadbirlarni ko'rdilar. Lenin shu maqsadda Kuybishev, Rudzutak singari sinagan yordamchilarini Buxoroga yubordi.

1923-yilda Fayzulla Xo'jaevning Moskvada uzoq davolanishidan foydalanib, sovetlar tashabbusi bilan o'tkazilgan Buxoro markaziy ijroiya qo'mitasining yig'ilishida Abdurauf Fitrat, Atoulla Xo'jaev, Muinjon Aminov, Sattor Xo'jaev singari ayniqsa erksevar rahbarlar bo'lmagur tuhmatlar bilan obro'sizlantirilib, lavozimlaridan bo'shatildilar va Buxorodan badarg'a qilindilar. Fitrat 1923-1925-yillarda Moskva va Leningradda yashadi, Sharq tillari institutida yoshlarga turk, arab, fors tillari va adabiyotidan dars berdi. Badiiy va ilmiy ijod bilan mashg'ul bo'ldi.

Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari tugatilib, O'zbekiston Respublikasi tashkil etilishi, Fayzulla Xo'jaev hukumat boshlig'i etib saylanishidan keyin Fitrat Samarqandda, Toshkentda yashadi, madaniy-ma'rifiy faoliyat bilan shug'ullandi.

Yangi hokimiyatning dastlabki uch yilida Xo'jaev hukumati Buxoro Xalq Respublikasida katta o'zgarishlarga erishadi. Mustaqil respublika bir qator Osiyo va Yevropa mamlakatlarida elchiliklarini ochadi, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib beriladi. Jadidlar partiyasi kompartiyaga rasmiy qo'shilgan bo'lsa-da, o'z siyosiy dasturidan voz kechmagan edi. Fayzulla Xo'jaev boshchiligidagi Buxoro hukumati 1923-yilda rus qo'shinlarini mamlakatdan olib chiqish, milliy armiyani tashkil etish va boshqa siyosiy talablarni Rossiya hukumati oldiga qo'ydi. Bolsheviklar bu talablar

¹⁰ Nusratillo Naimov. Buxoro jadidchiligi. – Toshkent: Fan, 2000.

amalga oshishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatib, oxir-oqibat Buxoro Xalq Respublikasining tugatilishiga erishdilar. Ammo Fayzulla Xo'jaev singari dunyo taniydigan arbobni siyosat maydonidan hali chetlashtirib bo'lmadi. Uni O'zbekiston hukumatining boshlig'i etib tayinlashdi. Hukumat tarkibining uchdan bir qismi esa Buxoro jadidlaridan shakllantirildi.

Bu davrga kelib u sho'rolar hokimiyatida O'zbekistonning milliy mustaqilligiga erishish xom xayol ekanligini tushungan edi. Shunday bo'lishiga qaramay, respublika iqtisodiyotini mustahkamlash, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'p kuch-g'ayrat sarfladi, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, tadbirkor va hunarmandlarni ortiqcha soliqlar bilan bo'g'ib qo'yish, milliy ziyolilarni siyosiy iskanjaga olish harakatlariga ochiqdan ochiq qarshi chiqdi. Hali 20-yillarning o'rtalarida buning oqibatida respublikada unga qarshi siyosiy kampaniya boshlandi va ayrim yillardagi tanaffuslar bilan 1937-yilgacha davom etdi. Oxir-oqibat u Nikolay Buxarin boshliq siyosiy guruhning a'zosi sifatida hibsga olinib, 1938-yil martida Moskvada otib tashlandi.

Moskva safarlaridan birida Fayzulla Xo'jaev Rossiya tashqi ishlar vaziri Chicherin, maorif vaziri Lunacharskiy huzurida bo'lib, mahalliy yoshlarni xorijda o'qitish rejalarini bayon etdi. Bunday paytda yosh respublika yo'lboshchisining intilishlariga monelik qilish Turkistonda qarshilik harakatini kuchaytirishini ular yaxshi tushunar edilar. Leninning o'zi boyish shiorini o'rtaga tashlab, barcha Sharq xalqlari o'z taqdirini o'zi belgilashini ma'lum qilgan edi.¹¹

Shunday paytda germaniyalik mehmonning o'z oyog'i bilan Buxoroga kelishi ayni muddao bo'ldi. Respublikaning yetuk namoyandalaridan Abdurauf Fitrat, Abduvohid Burhonov, Usmon Xo'jaev, Muso Sayidjonov va boshqalar xorijda o'qish g'oyasini qo'llab-quvvatlab, Olimjon Idris yordamida yoshlarni Germaniyada o'qitishni tashkil etishni taklif qildilar. Olimjon Idris ham bu taklifni qabul qilib amaliy yordam ko'rsatishga rozilik bildirdi va Berlinga jo'nab ketishi bilan tegishli tayyorgarlik ishlarini boshlashiga ishontirdi.

Xorijda o'qish g'oyasi tobora yetilmoqda edi. Buxoro Xalq Respublikasi kichik kengashining oradan besh oy keyin o'tgan yig'ilishida bu masala keng muhokamaga sabab bo'ldi. Yoshlarni tanlash, uzoq safarga tayyorlash mas'uliyati respublika tashqi ishlar va maorif vaziri Abdurauf Fitrat zimmasiga yuklatildi.

Olis yurtga jo'nab, uzoq yillar tahsil ko'rishni har kim ham istamasdi. Ko'pchilik ota-onalar g'ayridinlar orasida farzandlarining ta'lim olishiga qarshi edilar. Shuning uchun ko'pincha 14–16 yoshli yetim bolalarni tanlashga to'g'ri keldi. Fitratning tashabbusi bilan boshqa millat farzandlarini ham o'qishga safarbar etishga qaror qilindi. Shu maqsadda Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarga vakillar yuborildi.

¹¹ Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: Sharq, 1998.

Fitrat Turkistonning turli shaharlarida ijod maydonida paydo bo'la boshlagan iqtidorli yoshlarni o'qishga da'vat etdi. Ular 2–3 kishi bo'lib Buxoroga kela boshladilar.

Shunday qilib, 1922-yilning yoziga kelib Buxoroda xorijda o'qish ishtiyoqini bildirgan qirqa yaqin o'smirlar va qizlar to'plandilar. Abdurauf Fitrat ularni Samarqandga olib borib, Amir Temur sag'anasi yonida tiz cho'kib qasamyod etishga da'vat qildi. Bu milliy istiqloq g'oyalariga umrbod sadoqat ko'rsatish, el orasida ilm-ma'rifat tarqatish to'g'risidagi qasamyod edi.

O'sha vaqtda buxorolik yoshlar nafaqat Germaniyaga, balki Turkiya va Rossiya shaharlariga ham yuborildi. Ularning ichida 22 nafar qiz bola ham bor edi.

Respublikaning xorijda tahsil ko'radigan yoshlardan umidi katta edi. Shu sababli 39 kishilik guruhni shaxsan Fayzulla Xo'jaevning o'zi Germaniyaga olib boradigan bo'ldi. Bu paytga kelib har kecha-kunduzda 18-20 soatdan zo'riqib ishlagan davlat rahbarining salomatligiga putur yetgan, asab toliqishi, kamqonlik va ko'p oylar davom etayotgan bezgak uning tanasini zirqiratmoqda edi.

Fayzulla Xo'jaev davolanish, yoshlarni o'qishga joylashtirish va Germaniya bilan savdo-sanoat aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida olis safarga chiqdi. Unga yoshlarning murabbiysi sifatida Abduvohid Burhonov hamrohlik qildi. Ular bolalarning salomatligidan xabardor bo'lish uchun sobiq amir saroyida hakimlik qilgan ikki tabibni ham birga oldilar.

Veymar Demokratik Respublikasi Buxoro Xalq Respublikasi vakillarini katta tantana bilan kutib oldi. Germaniya monarxiya tuzumidan voz kechib, konstitutsion demokratik davlat yaratganiga hali uch yil ham bo'lmagan edi. Nemislar taraqqiyot yo'liga chiqishga intilayotgan barcha xalqlar uchun mamlakat eshiklarini keng ochgan edilar. Gazeta va jurnallar muxbirlari ular bilan suhbatlashib, matbuot nashrlarida "Turkiston qayta tug'ilmoqda, tug'ilaversin!" degan sarlavhalar ostida maqolalar e'lon qilishdi.

Nemis oilalari buxorolik o'g'il-qizlarni quchoq ochib kutib oldilar. Dastlab Berlin yaqinidagi Benedorf qishlog'idagi lagerda saqlangan bolalar ko'p o'tmay nemis xonadonlariga joylashtirilib, barcha turmush sharoitlariga ega bo'ldilar. Nemis bolalari bilan kundalik jonli muloqot ularning qisqa muddatda tilni yaxshi o'zlashtirishlariga imkon berdi.

Fayzulla Xo'jaev bolalarni uyma-uy joylashtirib bo'lgach, Germaniya poytaxtida Buxoro Xalq Respublikasining vakolatxonasini ochishga erishdi. Olimjon Idris imom-xatiblikdan voz kechib, vakolatxonaning madaniy ishlar bo'yicha mas'ul xodimiga aylandi. Nemis yahudiylaridan Xeymnits unga yordamchilik qildi. Abduvohid Burhonov esa yana bir necha oy turkistonlik o'quvchilar bilan aloqani ta'minlab, Buxoro-Berlin yo'nalishida qatnab turdi. Yig'ilishda Germaniyada tahsil olayotgan yoshlar ta'minotiga qo'shimcha mablag' ajratish masalasi ko'rib chiqildi. Chunki Fayzulla Xo'jaev ularga yordam berish uchun so'nggi imkoniyatlar

qolayotganini yaxshi tushunar edi. Kengash Germaniyada tahsil ko'rayotgan har bir talabaga tilla pul hisobiga qo'shimcha 15 so'mdan mablag' ajratishga qaror qildi. Natijada har bir talabaning oylik stipendiyasi 75 tilla so'mga yetkazilib, kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan moddiy muammolar hal qilindi.

Ammo ko'p o'tmay bolsheviklar Buxoroda hukumat inqirozini e'lon qilib, Buxoro Xalq Respublikasini tugatdilar¹².

Xulosa. Buxoro jadidlari XX asr boshida mamlakatni isloh qilish, jamiyatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish va milliy mustaqillikka erishish g'oyasi bilan faol siyosiy va ma'rifiy harakat olib bordilar. Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Abduvohid Burhonov va boshqa yetakchilar ta'lim tizimini yangilash, yoshlarni xorijda o'qitish, milliy kadrlar tayyorlash hamda demokratik boshqaruv asoslarini joriy etishga intildilar. Ular Germaniya, Turkiya va Rossiya kabi davlatlarga yuzlab yoshlarni yuborib, ilm-fan va tajriba egallash orqali kelajakda mustaqil davlat qurish uchun poydevor yaratmoqchi bo'ldilar. Shu bilan birga, Buxoro Xalq Respublikasi davrida iqtisodiy, madaniy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga harakat qildilar.

Biroq bu jarayonlar tashqi siyosiy bosim, ichki qarama-qarshiliklar va bolsheviklar aralashuvi tufayli izdan chiqdi. Natijada Buxoro Xalq Respublikasi tugatilib, jadidlar harakati qattiq tazyiqqa uchradi, ularning ko'pchiligi lavozimlardan chetlashtirildi yoki surgun qilindi. Bu voqealar jadidlar harakatining milliy uyg'onish va taraqqiyot yo'lidagi katta urinish bo'lganini, ammo murakkab siyosiy sharoitlar sababli to'liq amalga oshmaganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Juliboy Eltazarov. Buxoro jumhuriyati 101 yoshda. – Istanbul: Mumtoz nashriyoti, 2021.
2. Nusratillo Naimov. Buxoro jadidlari. – Toshkent: Fan, 2000.
3. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Bahodir Eshov, "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi". – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2012.
5. To'raev Halim. Buxoro tarixi. –Buxoro: Durdona nashriyoti, 2020.

¹² Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: Sharq, 1998.